



Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari

Saydullayeva Azizaxon Raximovna –

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi p.f.b.f.d. (PhD)

E-mail: azizasaydulayeva13@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-5829-3078>

Ro'ziyeva Ko'hinur Lazizbek qizi –

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

E-mail: ruzievakuhinur@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-9478-6687>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda inklyuziv yondashuvni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashdir. Ishda tahlil, kuzatish, suhbat, pedagogik modellashtirish va tajriba metodlaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, shaxsga yo'naltirilgan va amaliy yondashuv asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni bo'lajak pedagoglarda empatiya, bag'rikenglik, individual yondashuv va moslashuvchanlik ko'nikmalarini samarali shakllantiradi. Inklyuziv kompetentlikni rivojlantirish pedagogik ta'limda insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlab, har bir o'quvchining teng imkoniyatlar asosida ta'lim olishiga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, pedagog, kompetentlik, metodika, empatiya, bag'rikenglik, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, adaptatsiya, teng imkoniyatlar, ijtimoiy integratsiya, modellashtirish, tajriba.

Особенности методики развития инклюзивной компетентности у будущих педагогов

Аннотация. В статье рассматриваются особенности методики развития инклюзивной компетентности у будущих педагогов. Цель исследования выявить теоретические и практические основы формирования инклюзивного подхода в системе подготовки учителей. В работе использовались методы анализа, наблюдения, интервью, педагогического моделирования и эксперимента. Результаты показали, что личностно-ориентированное и практико-ориентированное обучение способствует развитию у будущих педагогов эмпатии, толерантности, гибкости и индивидуального подхода. Развитие инклюзивной компетентности укрепляет гуманистические принципы образования и обеспечивает равные возможности для всех учащихся, независимо от их особенностей или социального статуса.

Ключевые слова: инклюзивное образование, педагог, компетентность, методика, эмпатия, толерантность, личностно-ориентированный подход, адаптация, равные возможности, социальная интеграция, моделирование, эксперимент..

Specific features of the methodology for developing inclusive competence in future teachers

Annotation. This article examines the specific features of the methodology for developing inclusive competence among future teachers. The purpose of the study is to identify the theoretical and practical foundations for forming inclusive approaches in teacher training. The research used methods such as analysis, observation, interview, pedagogical modeling, and experimentation. The results show that learner-centered and practice-oriented teaching effectively develops empathy, tolerance, adaptability, and an individualized approach in pre-service teachers. The development of inclusive competence strengthens humanistic principles in education and ensures equal learning opportunities for all students, regardless of their personal characteristics or social conditions.

Keywords: inclusive education, teacher, competence, methodology, empathy, tolerance, learner-centered approach, adaptation, equal opportunities, social integration, modeling, experiment.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi insonparvarlik tamoyillariga tayanib, har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta'lim bu barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy, psixologik yoki intellektual imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarning umumiy ta'lim jarayonida to'liq ishtirok etishini ta'minlaydigan tizimdir. Bunday yondashuv inson huquqlari, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanadi.

Inklyuziv ta'lim g'oyasi bugungi kunda nafaqat nogironligi bo'lgan bolalarning, balki turli ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy sharoitlarda voyaga yetayotgan o'quvchilarning ham yagona ta'lim muhitida o'qish huquqini kafolatlaydi. Bu jarayon o'qituvchilardan o'z faoliyatida differensial yondashuv, moslashtirilgan metodika va ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini talab etadi.

Shunday ekan, bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligi, shaxsiy qadriyatlari va pedagogik mahoratini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu kompetentlik o'qituvchining nafaqat o'quvchilarning individual ehtiyojlarini anglay olishini, balki ularga mos ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish, hamkorlikni yo'lga qo'yish va bag'rikenglik muhitini yaratish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Pedagogning inklyuziv kompetentligi bu o'z kasbiy faoliyatini shunday tashkil eta olish darajasidirki, unda har bir o'quvchining imkoniyatlari qadrlanadi, rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi va ijtimoiy integratsiya ta'minlanadi. Bunda o'qituvchining empatiyasi, ijtimoiy sezgirligi, muloqot madaniyati hamda o'quvchilarga nisbatan ijobiy psixologik munosabati muhim o'rin tutadi.

Inklyuziv kompetentlikni shakllantirishning zaruriyati shundan iboratki, zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy, ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlovchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Shu boisdan, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida inklyuziv ta'lim falsafasini chuqur anglash, xalqaro tajribalarni o'rganish va milliy sharoitga mos metodik yechimlarni joriy etish bugungi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inklyuziv ta'lim masalasi bugungi kunda dunyo miqyosida eng ko'p o'rganilayotgan pedagogik yo'nalishlardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim tizimi nafaqat alohida ehtiyojli bolalar uchun, balki barcha o'quvchilarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, L. Florian va K. Black-Hawkins inklyuziv pedagogika mohiyatini o'qituvchining "turli imkoniyatdagi o'quvchilarni birgalikda o'qitish jarayonida faol ishtirok etish imkonini yaratish"dagi roli orqali izohlaydilar[3]. T. Booth va M. Ainscow esa "Inclusion Index" modeli orqali ta'lim muassasalarida inklyuziv muhitni baholash va takomillashtirish mezonlarini ishlab chiqqan[2].

Mahalliy tadqiqotchilardan N. Ashurova inklyuziv ta'limni joriy etishda o'qituvchining psixologik tayyorgarligi, empatiya va kommunikativ kompetentligini asosiy omil sifatida belgilaydi[1]. O. Musurmonova esa bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni shakllantirish uchun integrativ yondashuvni taklif etadi, bunda nazariy bilim, amaliy tajriba va shaxsiy qadriyatlar bir butun tizimda rivojlantiriladi[6].

Adabiyotlarni tahlil qilish orqali quyidagi muhim ilmiy xulosalar shakllandi. Inklyuziv ta'lim pedagogik tizimda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning rivojlanish bosqichi hisolanadi. Shuningdek, o'qituvchilarda inklyuziv kompetentlikni shakllantirish uzluksiz kasbiy tayyorgarlik jarayonini talab qiladi. Ta'lim muassasalarida inklyuziv madaniyatni yaratish uchun tashkiliy, metodik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlov mexanizmlari zarur hisoblanadi

Tahlil va sintez metodi orqali inklyuziv ta'limga oid xalqaro va milliy adabiyotlar, qonun hujjatlari, ilmiy maqolalar o'rganilib, umumiy nazariy xulosalar ishlab chiqildi.

Taqqoslash metodi yordamida xorijiy tajriba (Buyuk Britaniya, Finlandiya, Rossiya) va O'zbekiston ta'lim tizimining amaliy yondashuvlari solishtirildi.

Pedagogik kuzatish oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning inklyuziv yondashuvga munosabati, amaliy tayyorgarligi va kommunikativ faoliyati tahlil qilindi.

Eksperimental yondashuv bilan maxsus seminarlar va treninglar orqali metodik tavsiyalar sinovdan o'tkazildi.

Intervyu va so'rovnoma usuli yordamida talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida inklyuziv ta'limga oid qarashlar o'rganildi.

Metodologik jihatdan tadqiqot shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, ijtimoiy inklyuziya nazariyasi va kompetensiyaviy yondashuv asoslariga tayandi. Ushbu yondashuvlar inklyuziv kompetentlikni shunchaki bilim sifatida emas, balki pedagog shaxsining kasbiy madaniyati, axloqiy qadriyatlari va amaliy faoliyati bilan uyg'un jarayon sifatida talqin etish imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy komponentlarning uyg'un rivojlanishini talab qiladi. O'tkazilgan pedagogik kuzatuvlar va so'rovnomalar natijalariga ko'ra, talabalarning aksariyati inklyuziv ta'limning mohiyatini umumiy tarzda bilsalar-da, uni amaliyotda qo'llash bo'yicha tajribaga ega emasliklarini bildirgan.

Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek, bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlik quyidagi uch asosiy komponent asosida shakllanadi:

Motivatsion-kommunikativ komponent - bu inklyuziv qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat, empatiya, bag'rikenglik va ijtimoiy hamkorlikni o'z ichiga oladi. Talabalar orasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 78 foiz ishtirokchi inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlagan, biroq 40 foizigina o'zini bu jarayonda yetarlicha tayyor deb hisoblagan. Bu esa motivatsiyani oshirish va psixologik tayyorgarlikni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Bilimiy-kompetensial komponent - bu o'qituvchining inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, qonunchilik, pedagogik tamoyillar va metodik yondashuvlar haqida bilimga ega bo'lishini anglatadi. O'rganilgan ma'lumotlarga ko'ra, maxsus o'quv modullarini o'z ichiga olgan fanlar (masalan, "Inklyuziv pedagogika", "Maxsus pedagogika asoslari")ni o'qigan talabalar boshqalarga nisbatan ancha yuqori natijalarni ko'rsatgan.

Amaliy-metodik komponent – bu turli imkoniyatdagi o'quvchilar bilan ishlash, o'quv jarayonini moslashtirish, darsni differensial tashkil etish hamda jamoada inklyuziv muhit yaratish ko'nikmalarini qamrab oladi. Tadqiqot davomida talabalar uchun tashkil etilgan trening va keys-stadi mashg'ulotlari natijasida ularning dars jarayonida moslashtirilgan topshiriqlar ishlab chiqish ko'nikmalari 35 foizga oshgan.

Eksperimental sinovlar shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlar (rol o'ynash, muammoli vaziyatlarni hal etish, refleksiya mashg'ulotlari)dan foydalanish talabalar faoliyatini yanada faollashtirgan va inklyuziv yondashuvni amaliy o'zlashtirish darajasini oshirgan. Shuningdek, guruhli ishlash, peer-to-peer o'qitish (o'rtoqlik asosida o'qitish) va muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar o'quvchilarda ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashga yordam bergan.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, inklyuziv kompetentlikni rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar eng samarali deb hisoblash mumkin.

- o'qituvchi tayyorlash jarayoniga amaliy mashg'ulotlar ulushini ko'paytirish;
- o'quv dasturlarini real inklyuziv holatlar bilan boyitish;
- ijtimoiy-psixologik treninglar orqali empatiya va bag'rikenglikni shakllantirish;

- oliy ta'lim muassasalarida "inklyuziv madaniyat"ni rivojlantirishga yo'naltirilgan muhit yaratish.

Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni shakllantirish faqat o'quv dasturi orqali emas, balki butun ta'lim muhitining qadriyatlari va madaniyati orqali ro'y beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirish bu nafaqat kasbiy tayyorgarlikning bir qismi, balki pedagog shaxsining insonparvarlik qadriyatlariga asoslangan dunyoqarashini shakllantirish jarayonidir. Natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan solishtirilganda, o'xshash tendensiyalar kuzatildi. Masalan, Booth va Ainscow tomonidan ishlab chiqilgan "Inclusion Index" modeli ham o'qituvchining shaxsiy qadriyatlari va maktabdagi inklyuziv madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka urg'u beradi[2].

Shuningdek, L. Florian ta'kidlaganidek, inklyuziv pedagogika o'qituvchidan "barcha o'quvchilar o'rganishga qodir" degan ishonchga asoslangan yondashuvni talab etadi[4]. O'zbekiston tajribasida esa bu tamoyil hali to'liq shakllanmagan bo'lib, ko'p hollarda inklyuziv ta'lim faqat maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash doirasida talqin qilinadi. Aslida esa inklyuziv yondashuv barcha farqlarga ochiqlik, hamkorlik va teng imkoniyat yaratish tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Izlanish mobaynida, bo'lajak pedagoglarning inklyuziv kompetentligini shakllantirishda quyidagi muhim omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Nazariy va amaliy tayyorgarlikning integratsiyasi faqat ma'ruza darslari bilan cheklanmasdan, real inklyuziv holatlar asosida mashg'ulotlar o'tkazish zarur.

Mentorlik tizimini joriy etish tajribali o'qituvchilar rahbarligida talabalar inklyuziv ta'lim amaliyotini chuqurroq o'zlashtiradilar. Bundan tashqari, psixologik tayyorgarlikni mustahkamlash talabalar o'z emotsiyalarini boshqarish, stressga bardosh berish, murakkab holatlarda muloqot o'rnatish kabi ko'nikmalarni egallashlari lozim. Ta'lim muhitini transformatsiya qilish orqali o'quv jarayonida barcha talabalarning ishtirokini rag'batlantiruvchi, diskriminatsiyasiz muhit yaratish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, inklyuziv ta'limni rivojlantirishda o'qituvchining shaxsiy qadriyatlari alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Agar pedagog o'z faoliyatini insonparvarlik, bag'rikenglik va adolat tamoyillariga asoslagan bo'lsa, u o'quvchilarga ham shunday yondashuvni singdiradi. Shu bois inklyuziv kompetentlikni shakllantirishda kasbiy bilimlar bilan bir qatorda shaxsiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirish zarur.

Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida quyidagi yo'nalishlarni takomillashtirish taklif etiladi:

- inklyuziv ta'lim fanlarini pedagogik oliy ta'lim dasturlariga majburiy modul sifatida kiritish;
- o'qituvchilar uchun amaliy seminarlar, treninglar va simulyatsiya darslarini tashkil etish;
- xalqaro tajribani milliy ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirish;
- inklyuziv muhitni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash.

Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirish bu doimiy o'rganish, amaliy tajriba to'plash va insoniy qadriyatlarni kasbiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish jarayoni bo'lib, u pedagogik ta'limning sifatini oshirishda muhim strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirish metodikasi zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon integratsion, shaxsga yo'naltirilgan va amaliy yondashuvlarning uyg'unlashuvi asosida tashkil etilishi lozim.

Inklyuziv kompetentlik faqat nazariy bilimlar majmui bilan cheklanmay, balki empatiya, sabr-toqat, bag'rikenglik va insonparvarlik kabi muhim axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan kompleks jarayondir.

Metodik yondashuvlar ta'lim jarayonida turli ehtiyojga ega o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, individual yondashuv asosida ta'lim berish va har bir talabaning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Shu jihatdan, inklyuziv ta'limni amalga oshirishda pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, psixologik tayanchlari va kommunikativ madaniyati muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kelgusida oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv pedagogika fanini yanada chuqurlashtirish, amaliy seminar va treninglar sonini ko'paytirish, shuningdek, xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali mazkur yo'nalish samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, ta'lim tizimida innovatsion metodlar va raqamli vositalardan foydalanish, o'qituvchilarning o'z ustida muntazam ishlashini qo'llab-quvvatlash inklyuziv kompetentlikni rivojlantirishning muhim shartidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ashurova N. Inklyuziv ta'limni joriy etishda o'qituvchining psixologik tayyorgarligi va empatiya ko'nikmalarining ahamiyati. – Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 2021. – №3. – B. 45–52.
2. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. – Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education (CSIE), 2016. – P. 128.
3. Florian L., Black-Hawkins K. Exploring Inclusive Pedagogy. – British Educational Research Journal, 2011. – Vol. 37(5). – P. 813–828.
4. Florian L., Pantić N. Teacher Education for the Changing Demographics of Schooling: Inclusive Education for an Interconnected World. – New York: Routledge, 2017. – P. 220.
5. Murodova N.A. Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T.: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020. – B. 198.
6. Musurmonova O. Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni shakllantirishda integrativ yondashuv. – Oliy ta'limda zamonaviy yondashuvlar, 2023. – №2. – B. 67–74.
7. Slee R. The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education. – London: Routledge, 2011. – P. 248.
8. UNESCO. Inclusive Education: The Way of the Future. – Paris: UNESCO Publishing, 2009. – P. 192.
9. Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – B. 284.
10. Ziyamuhammedova D. Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 224.